

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-sentyabr “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”dagi PQ–323-son Qarorga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-sentyabrdagi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630-yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita majlisining 158-son bayoniga muvofiq Samarqand shahrida 2024-yil 10-11-oktyabr kunlari “Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro konferensiya

HISOBOTI

Qarorda belgilangan vazifalar ijrosi ta‘minlash hamda konferensiyani yuqori saviyada tashkil etish maqsadida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 25-sentyabrda 358 sonli buyrug‘i chiqarildi. Buyruq bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentyabrdagi PQ-323-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash yuzasidan CHORA-TADBIRLAR dasturi ishlab chiqildi hamda ishchi guruh tuzildi (*buyruq, chora-tadbirlar dasturi va ishchi guruh tarkibi ilova qilinadi*).



Xalqaro konferensiyaga **Kanada, Fransiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Eron** kabi mamlakatlardan 19 nafar (*shundan 6 nafari onlayn*) Mirzo Ulugʻbek hayoti va ijodini oʻrganadigan Astronomiya sohasidagi nufuzli Xorijiy olimlar taklif etildi (*xorijiy mehmonlar roʻyxati ilova qilinadi*).

Xalqaro konferensiya **2024-yil 10-11-oktyabr** kunlari Samarqand viloyatida Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda Samarqand viloyati hokimligi bilan hamkorlikda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida tashkil etildi (*foto albom ilova qilinadi*).

Xalqaro konferensiyani yuqori saviyada tashkil etish maqsadida Mirzo Ulugʻbek tavalludining 630-yiliga bagʻishlangan Samarqand shahrida 2024-yil 10-11-oktyabr kunlari **“Mirzo Ulugʻbek buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi”** mavzusidagi xalqaro konferensiya qatnashchilarining tashrif dasturi ishlab chiqilib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (*dastur ilova qilinadi*).


Konferensiya dasturi boʻyicha mahalliy va xorijiy mehmonlar bilan birgalikda 10-oktyabr kuni soat 9.30 da Observatoriyadagi Mirzo Ulugʻbek haykali poyiga gulchambar qoʻyilib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirildi (*foto albom ilova qilinadi*).



Tadbirning ochilish marosimi 10.30 da Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti majlislar zalida tashkil etildi (*foto albom ilova qilinadi*).



Ochilish marosimida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari **O.Maxkamov**, Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti **B.Abduxalimov**, Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari **X.To'xayev**, Samarqand davlat universitetining rektori **R.Xalmuradov** hamda Fransiya'dagi Temuriylar jamiyati prezidenti **Frederique Bressand**lar (onlayn) so'zga chiqdilar (*foto albom ilova qilinadi*).



Ochilish marosimida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari **O.Maxkamov** tomonidan nutq so'zlanib, unda Markaziy Osiyo tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk olim va davlat arbobi – Mirzo Ulug'bekni xotirlash, uning ulkan merosini o'rganish ishlarini jadallashtirish, amalga oshirilayotgan ishlarni kengaytirish maqsadida konferensiya tashkil etilganligini ta'kidlab, ushbu tadbirga tashrif buyurgan barcha mehmonlar – olimlar, tadqiqotchilar, ekspertlarni Samarqand shahrida o'z nomidan, shuningdek Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

vazirligi, qolversa vazirimiz Kongratbay Avezimbetovich Sharipov nomidan qutladilar.

O.Maxkamov o'z nutqida bugungi kunda davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilm-fan sohasiga berilayotgan e'tibor alohida ahamiyat kasb etayotganligini, mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Yalpi majlisda O'zR FA Astronomiya instituti direktori akademik **Sh.Egamberdiyevning** (*Mirzo Ulug'bek merosini o'rganish; yutuqlar va navbatdagi vazifalar*), Fan tarixi jurnali bosh muharriri **Muhammad Bahgerining** (*Eron*) (*Jamshid Koshiyning Ulug'bek davridagi ilmiy muhit haqida otasiga yozgan yangi xati*) hamda **Feza Gunergunning** (*Usmonlilar astronomiyasi va Ulug'bek Zij-i*) ma'ruzalari tinglandi (*foto albom ilova qilinadi*).

Xalqaro konferensiyaga Sharq astronomiyasida homiylik va homiylar 1-sho'ba doirasida 17 ta, Mirzo Ulug'bek davrida ilmiy va madaniy hayot deb nomlangan 2-sho'basida 35 ta jami 50 dan ortiq ma'ruzalar tinglandi (*foto albom ilova qilinadi*).



Xalqaro konferensiya doirasida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib qayta nashr etilgan allomaning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, “To‘rt ulus tarixi” nomli tarixiy asarining taqdimotlari o‘tkazildi (*foto albom ilova qilinadi*).

11-oktyabr kuni tushlikdan so‘ng konferensiyaga tashrif buyurgan xorijiy mehmonlar uchun Samarqandning diqqatga sazovor joylariga sayohat tashkil etildi.

Xalqaro konferensiya dastur bo‘yicha 2024-yilning 11-oktyabr kuni soat 18-00 da o‘z ishini yakunlandi.

**Innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish
va patentlash bo‘limi boshlig‘i**



X.Xaydarov